



NAMANGAN VILOYATI AHOLISINING MUSTAQILLIK YILLARIDA DEMOGRAFIK O'ZGARISHI

Madaminov Ulug'bek Maxamadjon o'g'li

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7439921>

ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 14th December 2022

Online: 15th December 2022

KEY WORDS

Demografik o'zgarish, aholi soni, yoshlar salmog'i, yosh chegarasi, etnodemografik, urbanizatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekistonda xususan Namangan viloyatida mustaqillik yillarida demografik o'zgarishlarining o'rganilishi haqida ilmiy tahlil olib borilgan. Sohadagi vujudga kelgan jarayonlar atroflicha yoritib berilgan.

Yaqin yillargacha Namangan viloyati respublikamizda aholisi nisbatan jadal ko'payib borayotgan xududlar qatoriga kirar edi. Ammo so'nggi yillarda demografik o'sish ko'rsatkichlari biroz pasayib bormoqda. Masalan, 1989-2000-yillarda viloyat aholisi yiliga o'rtacha 2,50 foizdan ko'payib borgan bo'lsa, 2000-yillar boshida bu ko'rsatkich 1,70 foizga tushib qolgan. Eng so'nggi yillarda aholi soni quyidagicha ko'paygan. 2008-yilda 43,0, 2009-yilda 42 ming kishiga yaqin. Bu mutloq raqamlar nisbiy ko'rinishda 1,80-1,90 foizlarga teng. Demak, demografik rivojlanish asr boshida biroz pasayib, taxminan 2006-yildan yanada jadallashgan va o'ziga xos to'lqin sifatida qisqa muddatli o'tish davrini namoyon qilgan. "Qishloq tumanlari miqyosida aholi o'sishi ancha xududiy tafovutlarga ega. Jumladan, agar viloyat aholisi 1989-2010-yillarda 1,53 martaga o'sgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Chortoq, Chust va Mingbuloq tumanlarida 2,2-2,9 martani tashkil qilgan. Shuningdek,

Uchqo'rg'on, To'raqo'rg'on va Pop tumanlarida ham bu o'sish ancha yuqori bo'lgan. Ayni vaqdda Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlarida aholi dinamikasining biroz past darajalari qayd etiladi. Namangan viloyatida aholining zichligi o'rtacha 1 km² ga 304 kishini tashkil qiladi. Bu raqam qo'shni Farg'ona va, ayniqsa Andijon viloyatiga qaraganda biroz pastroq bo'lsada, u respublika ko'rsatkichidan 5 marta ko'pdir"[1]. Viloyat xududida aholi zichligi har xil. Masalan, u Namangan shahriga bevosiga yaqin, sug'orma dexqonchilik yaxshi rivojlangan tumanlarda (Uychi, To'raqo'rg'on, Norin, Namangan) 610-736 kishiga yetadi. Vaxolanki, maydoni bo'yicha eng katta Pop tumanida zichlik 60 kishi, xolos. Bu esa butun Farg'ona iqtisodiy rayonida eng kichik ko'rsatkichdir. Shu qatorda, yangi o'zlashtirilgan Mingbuloq tumanida xam aholi joylashuvi uncha zich emas: 217 kishi va bu jixatdan u qo'shni Andijon viloyatining Ulug'nor, Bo'z, Farg'onaning Yozyovon tumanlariga



o'xshab ketadi. Ma'lumki, bu ma'muriy birliklar Markaziy Farg'ona - Qoraqalpoq cho'li xududlarida joylangan. Demak, viloyat tumanlarining demografik sig'imi bir-biridan ancha farq qiladi. Bunday xolat asosan suv resurslarining xududiy shakllanishiga bog'lik bo'lib, u o'z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mintaqaviy xususiyatlariga xam ta'sir ko'rsatadi.

Viloyatda aholi soniga ko'ra Chust tumani oldinda turadi. Bu yerda 218 ming kishi istiqomat qiladi. Qolgan qishloq tumanlari aholisi esa Kosonsoy tumanidagi 98,7 ming kishidan Uychi tumanidagi 189,2 ming kishigacha farq qiladi. "Aholi sonining nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishiga uning tabiiy xarakati sababchidir. Chunonchi, 2001 yilda tug'ilish 20,7 promille, o'lim 4,7 va tabiiy ko'payish 16,0 promillega teng bo'lgan (1999 yilda bu ko'rsatkichlar yuqoridagilarga mos ravishda 23,1, 4,9 va 18,2 promilleni tashkil etgan). 2009 yilda tabiiy xarakat ko'rsatkichlari quyidagicha: tug'ilish 23,0, o'lim 4,2, tabiiy ko'payish 18,8 promille. Aholining tabiiy xarakati xududiy farqlarga ega bo'lib, bu joylarning demografik vaziyati, aholisining yosh va jinsiy, milliy tarkibi, migratsiya va bandligi, ma'lumotlilik va urbanizatsiya darajasi kabi qator omillarga bog'liq"[2]. Bu o'zgarish yoki burilish taxminan 2005-2006 yillarga to'g'ri kelib, u, o'z navbatida, avlodlar almashinuvi, demografik jarayonlar o'tmishining xususiyatlari bilan izoxlanadi. Taxlillarga binoan, tug'ilish 1995-2009-yillar maboynida 15- 20 promillega qisqargan. Agar 2005-2009-yillar oralig'i olinsa, qator tumanlarda tug'ilish umumiy koeffitsientining biroz ko'tarilganligini ko'rish mumkin. Masalan, Kosonsoy

tumanida u 21,9 dan 26,1 promillega, Namangan tumanida 16,4 dan 24,2 gacha, Uychida 20,4 dan 24,9 promillega ko'tarilgan va x,k. Faqat Mingbuloq tumanida aks xolat qayd etiladi, xolos: 2005 -yilda tug'ilish darajasi 21,2 % bo'lgan xolda, u 2009 yilda 19,8 promillega tushib qolgan. 1995-yilda eng yuqori tug'ilish ko'rsatkichi Kosonsoyda, eng pasti - Yangiqo'rg'onda, farq 8,6 promilleni tashkil qilgan. 2000-yilda eng yuqori ko'rsatkichga (27,0 %) To'raqo'rg'on tumani, eng pastiga Norin (19,0 %) tumani ega bo'lgan, farq 8,0 %. 2005-yilga kelib tug'ilish geografiyasida quyidagi o'zgarishlar yuz bergan: eng yuqori tug'ilish darajasi - 21,9% (Kosonsoy va Pop tumanlarida), eng pasti - 18,7 % Uchqo'rg'on tumanida, ular o'rtasidagi farq boryo'g'i 3,2 punktni tashkil qilgan. 2009-yilda viloyat tumanlari orasida nisbatan yuqori ko'rsatkich Kosonsoyda (26,1%), eng pasti Mingbuloqda (19,8 %) qayd etiladi; farq 6,3 promille. Ko'rinib turibdiki, 2000-yillar o'rtasida tug'ilish ko'rsatkichlaridagi xududiy tafovutlar biroz tekislashgan, keyinchalik esa bu farq yanada ortib borgan.

"O'lim koeffitsienti ham bu yillarda pasayib borgan. Biroq qishloq tumanlari miqyosida katta farqlar kuzatilmaydi. 1995-yilda eng yuqori o'lim ko'rsatkichi Norinda, eng pasti Chust tumanida[3], 2009-yilda ularni o'rnini mos ravishda Pop xamda Chortoq tumanlari olgan. Aholi tabiiy xarakatining yakunlovchi ko'rsatkichi - tabiiy ko'payish jarayonlari tug'ilish koeffitsientidagi o'zgarishlarni takrorlaydi. U keyingi yillarda 16,1 promilledan 22,2 promillegacha yoki foizda olganda, 1,61 va 2,22 foizni tashkil qiladi. Viloyat bo'yicha tug'ilish



2009 yilda 23,0, o'lganlar 4,2 va tabiiy ko'payish 18,8 promille yoki 1,88 foizga teng"[4]. Bu xaqiqiy axoli ko'payishidan biroz ko'proq, xolos. Sababi tashki migratsiya viloyatda salbiy natijaga ega. Chunonchi, 2009 yilda xar ming kishiga viloyatga kelganlar 1,2, ketganlar 2,3 promillega barobar bo'lgan; migratsiya qoldigi minus 1,1 %. Kelganlar bo'yicha Namangan tumani oldinda - 2,7 %, ketuvchilar darajasi xam aynan shu tumanda yuqori - 2,9 %. Aholi migratsiyasi bilan shaharlar rivojlanishi, urbanizatsiya jarayoni chambarchas bog'liq.

Sababi qishloq aholisining shaxarlarga ko'chishi, shaharlar turi va tarkibining rivojlanishi urbanizatsiyaga olib keladi. Namangan viloyatida, respublikamizning boshqa mintaqalarida bo'lgani kabi, shahar aholisi 1989-2008-yillarda deyarli o'smadi yoki uning o'sishi qishloq aholisining ko'payishidan uncha ortiq, bo'lmadi. Natijada, urbanizatsiyaning umumiy demografik ko'rsatkichi bu davrda keskin o'zgarmadi, aksincha, mamlakat va qator viloyatlarda u xatto qisqardi. Ammo 2009-yilga kelib "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasto'rini qabul qilish va amalga oshirish munosabati bilan vaziyat keskin o'zgardi. Birgina Namangan viloyatida 109 ta qishloq aholi punkti shaxarcha maqomiga muassar bo'ldi va urbanizatsiya ko'rsatkichi 2008-yildagi 37.1 dan 64,7 foizga "sakradi". Xozirda viloyat mazkur ko'rsatkich bo'yicha respublikamizda birinchi o'ringa chiqib oldi. Vaxolanki, sanoat ishlab chiqarish va umuman ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bunga mos kelmaydi[5].

Tashkil etilgan yangi shaxarchalar, to'g'rirog'i - agroshaxarchalar aholisi

613,1 ming kishi yoki 2008 yil qishloq aholisining 44,8 foizi, 2009 yil shaxar aholisining 42,7 foizi demakdir. Ushbu raqamlar "ma'muriy" urbanizatsiyaning yoki qishloq urbanizatsiyasining naqadar ta'sirchanligini isbotlab beradi. Eng ko'p agroshaxarchalar Yangiqo'rg'on tumani xaritasida vujudga keldi - 18 ta. Ularning eng kattalari Qorachashurkentda 10557 kishi, Iskavotda 8490 kishi istiqomat qiladi. Tuman jami shaxarchalar aholisi 111,6 ming kishi yoki viloyat yangi shaxarchalar aholisining 1 /6 qismiga to'g'ri keladi[6].

To'raqo'rg'on tumanida bunday manzilgoxlar 12 ta, ularning umumiy aholisi 64,2 ming kishi. Uychi tumanida, mos ravishda, 11 ta va 47,3 ming kishi. Pop va Kosonsoy tumanlarida 10 tadan. Ular orasida eng yiriklari Chodakda 13008, Sangda 12908 (Pop tumani), Ozod shaxarchasida 8040 kishi (Kosonsoy tumani) istiqomat qiladi. Shuningdek, Namangan tumanining G'irvon shaxarchasida 13638, Uchqurg'onning Qayqi shaxarchasida 12813, Chust tumanining sobiq Olmos qishlog'ida 22939, Varzikda 11990 kishi aholi bor. Ma'lumki, Namangan viloyati O'zbekistonda qishloq aholi punktlarining kattaligi bilan aloxida ajralib turadi. 2008 yilda xar bir qishloqqa o'rtacha 2672 kishi aholi to'g'ri kelgan. Shu bois, yangi shaxarchalar soni va ular aholisining soni ancha ko'p bo'lgan. Agar faqat shu ko'rsatkichlardan kelib chiqilsa, yangi shaxarsozlik qoidalarining shu bandiga ko'ra (shaxarchalar aholisi 2000-kishidan kam bo'lmasligi kerak) viloyatning deyarli barcha qishloqlarini shaxar joylariga aylantirish mumkin bo'lar edi.

Biroq bunday yuzaki yondashuv yolg'on yoki sun'iy urbanizatsiyaga olib kelishi



ham shubxasiz xisoblanadi. Viloyatning urbanistik tarkibi assimetrik ko'rinishga ega; bu yerda faqat bitta katta shahar - Namangan bor, xolos (Fargona viloyatida ular 3 ta). Viloyat markazida 2010 yil boshida 441,2 ming aholi xatlov qilingan. Chust - viloyatning "ikkinchi" shaxrida 68,0 ming atrofida, Chortoqda 51,0, Kosonsoyda 47,0 ming aholi joylashgan. Pop, To'raqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Uychi, Yangiqo'rg'on "yarim o'rta" shaharlar sinfiga mansub (20,0-50,0 ming kishi). qolgan barcha 119 ta shahar va shaxarchalarning aholisi 20 mingdan oshmaydi[7]. Shu o'ripda Namangan shahri demografik rivojlanishiga alohida to'xtab o'tmoq zarur. Sababi so'ngi yillarda bu shahar o'ziga xos "Namangan tezligini" namoyon qilmoqda. Hozirgi kunda u aholi soni bo'yicha respublikamizning ikkinchi, poytaxt - Toshkentdan keyingi pog'onani egallovchi shahri xisoblanadi.

"Namangan shahri aholisining bunday tez o'sishi qisman aholi tabiiy ko'payishining taqqoslanayotgan shaxarlarga nisbatan birmuncha yuqoriligi, asosan esa uning xududini kengayishi xisobiga yuz bergan. Ayni vaqtda Toshkent va Samarqand shaharlarida tabiiy ko'payish pastroq va tashqi migratsiya kuchliroq bo'lgan. Viloyat kishloq aholisi 783 ming kishi, qishloq; aholi punktlari 403 ta. Har bir qishloqqa o'rtacha 1943 kishidan to'g'ri keladi. Bu respublikamizda eng yuqori ko'rsatkich xisoblanadi"[8]. Qishloqlar geografiyasida soylar o'ziga xos o'ringa ega. Nisbatan yirik qishloq aholi punktlari soylarning pastki qismida, kanal va ariqlar bo'yida, Namangan shahri atrofida joylashgan. Ayni vaqtda tog' va tog' oldi xududlarda, xususan, Pop tumanida mayda va tarqoq joylashgan qishloqlar xam oz emas. Bu esa ularda ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishiga ancha noqulayliklar tug'diradi.

References:

1. Soliev A. O'zbekiston geografiyasi. Darslik. T.: "Universitet", 2014. - 74-b
2. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари. – Тошкент: Фан ва технология, 2009.– 93-б
3. Назаров М.И. Қишлоқ жойларда алодига тиббий хизмат кўрсашнинг худудий ташкил этилиши (Наманган вилояти мисолида) География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 1996-й. – Б. 37
4. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. –64 б.
5. Хаджумуратова М.Х. Фарғона водийсининг демографик тарихи (1991-2016йй): тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссер...– Тошкент, ЎЗМУ, 2011 – 68 б.
6. Наманган вилояти меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш бошқармаси маълумотлари. – Наманган, 1991-2006.
7. Наманган вилояти давлат статистика бошқармаси маълумотлари. – Наманган, 1991-2006.
8. Абдуллаев О. Наманганвиллояти (табиати, ахрлиси, хужалиги).-Наманган, 1995.-76-б.